

HUSNIXAT DARSLARIDA O‘QUVCHILAR YOZUVIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR.

Ganiyeva Nilufar Komil qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika Fakulteti Boshlang‘ ich ta’lim

Yo‘ nalishi 4-kurs 3-21-guruh talabasi

E-mail: kamoliddinganiyev15@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс обучения каллиграфии учеников начальных классов. Особое внимание уделяется правильному наклону тетради, правильному использованию ручки и соблюдению правил посадки за партой. На основе полученных знаний учащиеся формируют соответствующие навыки.

Ключевые слова: Период обучения грамоте, подготовительный этап, основной (букварный) этап, осознанность, гигиенические навыки, каллиграфия.

Annotation: This article discusses how primary school students learn the concept of penmanship, how to properly hold their notebooks at the correct angle, use a pen correctly, and maintain proper posture at their desks. It also highlights how, based on this acquired knowledge, students develop various essential skills.

Keywords: Literacy period, preparatory stage, main (alphabet) stage, awareness, hygiene, penmanship.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarni chiroyli yozuv qoidalari bilan tanishtirish va yozuvga o‘rgatish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga husnixat nimaligi, daftarni to‘g‘ri qiyalikda tuta bilish, ruchkadan to‘g‘ri foydalana olish va partada to‘g‘ri o‘tirish qoidasiga amal qilgan holda o‘tirishni o‘rganib boradilar. Shu o‘rinda olgan bilimlari asosida qanday turdagi malakalarni o‘zlarida shakllantirib borishlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Savod o‘rgatish davri, tayyorgarlik davri, asosiy (alifbe) davri, onglilik, gigiyenik, husnixat, yozuv, yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish

Husnixat darslarida o‘quvchilar quyidagi talablarga amal qilishlari lozim.

1. Husnixatning gigiyenik talablariga rioya qilish.

2. Grafik me'yorlarga amal qilish.
3. Harflar qiyaligini to'g'ri saqlash.
4. Daftarni partada yozish talablari asosida tutish.
5. Harflarni bir tekis bosimsiz yozish.
6. Harflarning tutashtirilishini to'g'ri ifodalash.
7. Harflarni elementlarga ajratmay, bog'lab yozish.

Savod o'rgatish davrining asosiy maqsadi - o'quvchilarga elementar o'qish va yozishga o'rgatish hisoblanib u 2 davrni o'z ichiga olgan:

1. Tayyorgarlik davri - 8 soat,
2. Asosiy (Alifbe) davri - 120 soat.

Tayyorgarlik davrida biz o'quvchilar bilan elementar tushunchalar bilan tanishamiz..Misol uchun chiroyli husnixat bilan yozishga erishishda yozuv qurolining ahamiyati katta. Hozirda yozuv quroli sifatida sharikli ruchkadan foydalanish tavsiya etiladi. Sharikli ruchka yozish uchun qulay, ingichka, yengil, barmoqlar orasida tutishga mos. Ruchka barmoq orasida tutilganda, ruchka uchi bilan barmoq oralig'i 1,5-2 cm ga teng bo'lishi shart. Aks holda barmoqni ruchka uchidan uzq ushlash yoki juda yaqin tutish yozuv sifatini buzadi, harflarni xunuk yozishga olib keladi. O'quvchi yozayotganda yorug'lik chap tomondan tushib turishini, daftarni parta ustida qiyaligi 45° bo'lishi, doska poldan 80 sm yuqorida turishini, sinf xonada 1ta o'quvchi uchun 1,25 m² maydon to'g'ri kelishini, 1m² ga 18 vt yorug'lik to'g'ri kelishini, sinf xonasi uchun topg'ri rang tanlay olishni, partada to'g'ri o'tirish qoidalari haqida ma'lumotlarni bilib oladilar.

Asosiy (Alifbe) davriga kelib esa o'quvchilar yozuv malakasi haqida ma'lumotlar bilan tanishdilar. Ikki chiziqli daftarga harflarni 65° burchak qiyaligi asosida yozadilar.Bunda o'quvchilarga 65° ni kiyimlarini tugmasiga to'g'rilashlarini aytib o'tishimiz mumkin. Ikki chiziq orasida yoziladigan kichik harflar 4 mm bo'yi, 3 mm eni (a, i, m, n, o, r, s, v, x, o', u, e, sh, ch), katta bosh harflar esa 8 mm (A, B, D, E, F, G, H, I, J,.....), ikki chiziqni yuqorisiga ko'tarib yoziladigan harflar 8 mm (b, d, k, l, h, t, sh, ch), chiziqdan pastga tushib yoziladigan harflar 7 mm (g, p, y, q, j, g', ng), chiziqdan yuqoriga va pastga tushib yoziladigan harflar esa 11 mm (f) qilib yozilishi kerakligi haqida bilib olgach harf elementlari bilan tanishishni boshlaydilar.Yani osondan murakkabga tomon tamoyili asosida harflar elementlari va harflar bilan shu davrdan boshlab tanishib chiqadilar..Yozuv – biror tilda qabul

qilingan maxsus belgilar yig'indisi. Yozuv tushunchasi tilning tovush elementlari (so'z, bo'g'in, tovush)ni ifodalovchi belgilarnigina emas, balki piktografiya, ideografiya shakllarini ham o'z ichiga oladi. Bular aloqa qilish belgilari yig'indisi sifatida yozuvdan ilgarigi belgilar (xotira yozuvi, hisoblash yozuvi va boshqalar)ga qarama-qarshi qo'yilgan. Husnixat - bu nafaqat chiroyli yozuv, balki yozuv madaniyati, estetik did va tafakkur ifodasidir. Ayniqsa, maktab davrida husnixat darslari o'quvchilarning yozuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Yozuv orqali bola nafaqat o'z fikrini ifoda etadi, balki intizom, e'tibor, sabr-toqat kabi fazilatlarini ham rivojlantiradi. Shu bois, husnixat darslarida o'quvchilar yozuviga qo'yiladigan talablar aniq va tizimli bo'lishi kerak. Yozuvdagi har bir harf o'ziga xos shakl va tuzilishga ega. O'quvchi harflarni grammatik va grafologik jihatdan to'g'ri yozishni bilishi kerak. Harflar orasidagi bog'lanishlar, so'zlar orasidagi masofa va satrga joylashtirish qoidalariga amal qilinishi zarur. Bu nafaqat chiroyli ko'rinish, balki matnni oson o'qiladigan qilishda muhim ahamiyatga ega. Yozuvning toza va aniq bo'lishi – husnixatdagi eng muhim talablardan biridir. O'quvchi daftarda tartibli yozishi, chizib tashlash yoki qoralashlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Yozuvdagi aniqlik esa harflarning tushunarli, bir-biridan farqli va o'qiladigan bo'lishini ta'minlaydi. Daftarda yozayotganda qatorga rioya qilish, har bir satrni boshidan boshlash, harflar va so'zlarni bir xil masofada yozish tartibli yozuvning belgilaridandir. Bu bolalarda mehnatsevarlik va diqqatni oshirishga yordam beradi. Husnixatda harflarning bir xil o'lchamda, izchil va chiroyli yozilishi talab etiladi. Barcha harflar satrda muvozanatli joylashtirilib, bir-biriga juda yopishib yoki oraliq masofasi haddan ortiq katta bo'lmasligi kerak. Bu o'quvchining estetik qarashi va didini rivojlantiradi. O'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgatishda, ularda husnixat malakalarini hosil qilishda yozuv qurollari va materiallarining sifati katta rol o'ynaydi. Yozuvning chiroyli bo'lishi ko'p jihatdan yozuv quroli va materialiga bog'liqdir. Yozuv qurollari va materiallari quyidagilar sanaladi:

1. Xattaxta.
2. «To'g'ri o'tir» plakati.
3. Alifboning yozma shakli.
4. Haflar alohida yozilgan ko'rgazma.
5. Husnixat daftari.
6. Rangli bo'rlar.

7. Ruchka.

8. Yozuv daftari.

Bola maktabga qadam qo‘ygan kundanoq yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanishga, ularni ozoda saqlashga o‘rgatib boriladi. O‘qituvchi o‘quvchining yozuv qurollari va materiallarini muntazam tekshirib borishi muhim vazifa sanaladi. Dastur talabi bo‘yicha 1-sinf o‘quvchilari uchun yozuv yo‘li 4 mm, bosh harflar uchun 8 mm bo‘lgan qiya chiziqlari siyrak bo‘lgan 2 chiziqli daftar tavsiya etiladi.

Xulosa: Husnixat darslari o‘quvchilar uchun kuchli sabr toqatni talab etadi. Bunda tashqari esa o‘quvchilar tafakkurini, estetik didini va yozuv madaniyatini shakllantiruvchi muhim fanlardan biridir. Unda qo‘yiladigan talablar orqali o‘quvchilar chiroyli yozishni, tartibli ishlashni, aniqlikka e‘tibor qaratishni o‘rganadi. Bu esa uning umumiy saviyasi va dunyoqarashiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Yozish jarayonida gigiyenik talablarga rioya qilgan holda chiroyli yozish o‘quvchilarni yozuvga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod kelajagimiz poydevori” Toshkent 1999 Boshlang‘ich sinf takomillashtirilgan davlat ta‘lim standarti “Boshlang‘ich ta‘lim” 2005 yil 6-son.

2. Abdullayev.Q, Nazarov.Q, Yo‘ldoshevs.Sh “Savod o‘rgatish” Toshkent “O‘qituvchi”1996

3. G‘afforova R, Nazarov Q, Yo‘ldoshevs Sh “1-sinf savod darslari” Toshkent 1997

4. G‘ulomov.M “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini husnixatga o‘rgatish” Toshkent “O‘qituvchi” 1970

5. G‘ulomov.M “Husnixat metodikasi” Toshkent “O‘qituvchi” 1976

6. G‘ulomov.M “Chiroyli yozuv malakasini shakllantir ish” Toshkent “O‘qituvchi” 1976

7. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent, Noshir, 2009

8. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Iqtisodiyot va moliya, 2021

9. G‘ulomova A va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, Fan va texnologiya 2012